

TEXNOLOGIYA FANI BUYICHA MUSTAQIL TA'LIM  
JARAYONIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI  
SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xalqaro nordik universiteti Chilonzor tumani

Tyutor lavozimi

Abdurasulova Atirgul Miktibayevna

**Annotatsiya:** Ushbu texnologiya fani buyicha mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishning psixologik xususiyatlari va uning ijobiy jihatlari ko'rib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxs xarakteri, bir tizimga rioya qilish, tirishqoklik, ijodkorlik, qobiliyatlarini nomoyon qilish, maqsad sari intilish, ishlash, ovqatlanish, badan tarbiyasi.

Bugungi kunda ta'lim tarbiya tizimidagi isloxlarning muvafaqqiyatli ko'p jihatdan o'qituvchi va murabbiylarga bog'liq .Bugungi kun o'qituvchisi o'z ustida tinimsiz ishlaydigan ,xar tomonlama keng fikirlaydigan ,ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxsga,yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishi xayotning o'zi talab etmoqda.

Texnologiya fanini o'qitish metodikasi faninig maqsadi talabalarni umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Texnologiya" fanini Davlat ta'lim standarti (DTS) asosida tashkil etish va o'qitish, pedagogika, psixologiya va maxsus fanlardan olgan bilimlarini mujassamlashtirgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirish yo'llarini bo'lajak texnologiya ta'lim o'qituvchilarini metodikaga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.

Bugungi kunda oldimizga quygan buyuk maqsadlarimizga ,ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi ,xayotimizning taraqqiyoti va istiqboli,

amalgama oshirilayotgan islohatlarimiz, rejalarimiz samarasi, taqdiri, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli, mustavqil fikirllovchi, ijodkor mutahassis kadrlarni tayyorlash muammosi bilan bog'liq. Yosh avlodning yetuk barkamol shaxs qilib shakllantirishda esa pedagogik -psixologik bilimlarning o'rni beqiyosdir. Mustaqillik – shaxs xarakterining ijobiy xususiyatlaridan biri u inson tafakkuri tizimida, turli ko'rinishdagi faoliyatlar va harakatlarida nomoyon buladi.

Mustaqil ishlash har bir o'quvchidan ma'lum bir tizimga rioya qilishni, tirishqoklikni, ijodkorlikni, qobiliyatlarini nomoyon qilish va maqsad sari intilishini talab etadi. Bunda ko'pchilik o'quvchilar maktabda kundalik xayotni to'g'ri tashkil qilish muammosi paydo bo'ladi. Ba'zi maktab o'quvchilari o'rganilayotgan materiallarni yetarli o'zlashtirib olish uchun vaqt yetashmasligidan, o'qituvchisi va ota-onalari tomonidan yuklamalar ko'pligidan shikoyat qiladi.

Bunday vaziyatda o'z vaqtini to'g'ri taqsimlay olmagan, har bir daqiqasining qadriga yetmagan o'quvchilardagina sodir bo'ladi. Endi bunday vaziyatlarning oldini olish uchun mustaqil ishlashda kun tartibiga qat'iy rioya qilib va oldiga quygan maqsadlariga amal qilgan holda ish boshlash to'g'ri buladi. Kun tartibini o'quvchi maqsadga muvofiq tarzda tuzish uchun quyidagicha ish yuritish kerak.:

Bir sutkani bir qancha zaruriy ulushlarga bo'lish kerak:

-bunga o'qish, o'z ustida ishlash, ovqatlanish, badan tarbiyasi, dam olish, xordiq chiqarish, xo'jalik ishlari va shu kabilar kiradi.

Kun tartibi tuzishdan maqsad har bir o'quvchining ma'lum tartibda ish olib borishiga, hech narsani esdan chiqarmay, hamma narsaga vaqt ajratish, har bir ishni o'z muddatida bajarishga o'rgatishdan iboratdir. Kun tartibini har bir kishi o'zining shaxsiy fiziologik imkoniyatlarigagina emas, balki umuminsoniy qonun-qoidalarga qarab ham tuzish mumkin.

Kun tartibini tuzishda uxlash (sutkasiga 7-8 soat), muntazam ovqatlanish (uch-to'rt marta), dam olish (faol va sust) uchun yetarli vaqt ajratish zarur. Salomatlikni yaxshilab borish maqsadida har kuni jismoniy mashklar va badan tarbiyasiga rioya

qilib, organizmni chiniqirish uchun xam vaqg ajratish tavsiya etiladi. Ko'pchilik o'quvchilar o'z imkoniyatlariga ortiqcha baho berib yuborishlari natijasida ma'lum zo'riqishlarga uchrashi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki ertalab nonushta qilmay kelgan talabalar ko'p hatoliklarga yo'l qo'yadilar, to'yib uxlamagan talabalarda tezkorlik yetishmasligini kuzatishimiz mumkin.

Agar miyaga dam berilmay, yuklama bilan ishlayverilsa, asab xujayralariga va butun asab tizimiga zo'riqish bo'lishi mumkin. Bunday sharoitlarda har qanday ish faoliyati tuxtalib dam olish maqsadga muvofikdir. Teatr, kino, she'rxonlik, kitob mutaaolasi, istarohat bog'larida sayr qilish, tabiat manzaralaridan bahra olish, sayrlarda bo'lish– bularning hammasi unumli mehnat qilishda ajoyib yordam beruvchi omillardir.

Kun tartibini belgilashda vaqt meyorini rejalashtirish o'quv mashg'ulotlari jadvali, o'quv dasturi va darsdan tashqari mashg'ulotlar jadvaliga asoslanib tuziladi. Binobarin, ana shu xujjatlar bilan tanishish mustaqil ishlashni tashkil etishning asosi va birinchi shartidir.

Har bir o'quvchi o'zining ish rejasiga ega bo'lishi kerak. Uquvchilar ijodkorlik qobiliyati rivojlantirishda shaxsiy rejasi yuqorida qayd qilib o'tilgan shartlarni inobatga olgan holda, berilgan topshirikdar aniqlanadi. O'quv jadvalida belgilangan topshiriklar, darsdan tashqari topshiriqlar, tajriba ishlari, uyga vazifa, nazorat topshiriqlari, ommaviy tadbirlar, musobaqalar, badiiy kechalar, sport musobaqalari kabi tadbirlarning muddatlari hisobga olinadi.

Bir kunlik xaftalik yoki bir oylik reja tuzib chiqiladi. Ushbu rejada bajariladigan ishlar mazmuni, kuni va vaqgi ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmokedagi o'quvchilar vaqtni to'g'ri taqsimlay olmasliklari natijasida mustaqil ish bajarishlari va ulardagi ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda muammoga aylanmoqda. Ular tartib intizo mga amal qilmasliklari, mustaqil ishlash va ijodiy yondasha olish bilan shug'ullanish yo'llarini bilmasliklari buning asosiy sababidir. Bunda o'quvchilarning kun tartibini tuzishga va unga amal qilishiga o'rgatishimiz zarur . Ular ertalab urnidan

turganidan to uyquga ketgunicha ma'lum me'yorda rejalarni tuzib chiqishlari kerak. O'rganganlaridan kunlik rejalari takrorlanmagan xolda o'zgarib turuvchi va qayd etish lozim bo'lgan ma'lumotlarga yozib boriladi. Qilinadigan ishlarning kuni va vaqti aniq belgilab olinishi kerak.

Kun tartibini tuzishda mustaqil ishlashi va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishi uchun belgilangan soatlarda boshqa ishlar bilan band bo'lib uni bekorga o'tkazmaslik kerakligini, har 30-40 minutdan so'ng 10 minut hordiq chiqarish, 2,5-3 soatlik mashg'ulotdan so'ng esa, garchi charchamagan bo'lsangiz ham, yarim soat dam olish zarurligini e'tiborga olish kerak.

O'quvchilar o'qishdan tashqari ishlar uchun kuniga 4-4,5 soat vaqg ajratish zarur va bu vaqgni 5-10 minutgacha aniqlik bilan taqsimlash mumkin, bunday akliy mexnat gigiyenasi mezonlariga rioya qilish muxim va uning ijodiy qobiliyati rivojlanadi.

Har kuni kechqurun bajarilgan ishlar tahlil qilinadi. O'quvchilar bajargan ishlarida sustkashlikka yo'l quyilganini bilsa, keyingi bosqichlarda usha narsalarga tuzatishlar kiritishga harakat qilinadi, Qilinadigan ishlar tartibli ravishda belgilab chiqiladi. Miyani toliqgarib qo'ymaslik uchun aqliy mehnatdan so'ng jismoniy mehnat bilan shug'ullangan ma'qul.

Bugungi kunda mustaqil ishlashni undagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishini o'quvchi uzi qiziqqan yunalishlari asosida muntazam shug'ullanib va uni oz-ozdan kupaytirib borishi lozim. Bu uni charchatmaydi balki keljakda o'z kasbinig alsi ustasi va u keljakda qaysi kasb egasi bulishi kerakligini anglab oladi . O'quvchilar bu ishlari bilan o'z kelajagini rejalashtiradi va uni amalga oshirish yullarini tuzib tashkilotchilik qobiliyatini uyg'otadi, va mustaqil bajara olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, o'quvchi mustaqil ishlar jarayonida ko'proq nazariy bilimni o'zlashtirib o'z kasbining zur mutaxasisi uchun zamin yaratadi.

Vaqtни to'g'ri taqsimlash va mustaqil ishlashni oqilona tashkil etishni kasb etadi. U yoki bu fanlardan uyga berilgan vazifalarni bajarish mustaqil ishning oddiy

shakli hisoblanadi. Murakkab shakliga esa o‘tilgan darslar, ma’ruzalar va amaliy mashg‘ulotlar, seminar va laboratoriyalar, bo‘limlar yuzasidan adabiyotlarni mustaqil ravishda tahliliy o‘rganib chiqish, ayrim savollarga aniq javoblar topish bilan bog‘likdir. Manbalarni mustaqil o‘qish yo‘li bilan qo‘yilgan savollarga bir necha adabiyotlardan umumlashtirib, javob topishga o‘rgatib borish yaxshi natijalar beradi.

Mustaqil bilim olishda zarur bo‘lgan ko‘nikma, malaka va qobiliyatlarini takomillashtirish bilan tizimli rejalashtirib olib boriladi.

O‘quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatlarini asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi: faollik, mustaqillik, idrok etish faoliyati va qiziqish xoqish.

Ushbu mustaqil bilim olish faoliyatining xususiyatlari:

- ixtiyoriylik, qiziqish, hoqish, erkin tanlash, mustaqillik va faollik;
- maqsadga muvofiqlik va muntazamlilik;
- ijodiy qobiliyatlaridan foydalanish, ularni rivojlantirish;
- turli xil mumkin bo‘lgan - idrok etish intellektual-ijodiy, shaxsiy va pedagogik yo‘nalgan topshiriq va ishlarni bajarish;
- mustaqil ishlashda turli xil faoliyatlarida ishtirok etish.

Agar o‘quvchilarda texnologiya faniga nisbatan qiziqishi bor bulsa va shu fan asosida ijodkorlik qobiliyatini shakllantira olaman desa mana shu xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

Mustaqil fikrlashga o‘rgatish jarayoni mustaqil ta’limning asosiy qismi hisoblanadi. Mustaqil fikrlashga oid muammolar bilan ko‘pgina psixolog olimlar, xususan, Gamezo M.V., Domashenko I.A., N.F. Talizina N.A. Menchinskiy, M.A. Kabanova-Miller V. Karimova. Y. Maxmudov N. Shoumurodava va boshqalar tadqiqot olib borganlar [3, 75-b] mustaqil tafakkurni shakllantirish jarayoni mustaqil ishning asosiy qismi hisoblanadi.

Mustaqil ishlash jarayonini faollashtirish uchun talabalarda quyidagi xususiyatlarni shakllantirish zarur:

- mustaqil ishga ishtiyoq (motiv);

- mustaqil ish malaka va ko'nikmalari;
- mustaqil ishga layoqati.

Mustaqil ishning faol qo'zg'atuvchilari quyidagilardan iborat:


- mustaqil faoliyatga bevosita faol qiziqish;
- axloqiy estetik va ruhiy qoniqish motivlari.

Bilish ehtiyojlari rivojlanishining bosqichlari quyidagichadir:

- elementar ilmiy tadqiqot faoliyati yo'nalishi bosqichi va tashqi taassurotlarga ehtiyojni shakllantirish;
- olamni bilishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish bosqichi;
- bilish usulini egallash faoliyati sifatida mashq qilish ehtiyojini shakllantirish bosqichi;
- bilish ehtiyojlarini tanlashga yo'nalganligini shakllantirish bosqichi;
- mustaqil ishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish bosqichi.

So'nggi bosqich, ayniqsa biz uchun ahamiyatli hisoblanadi. Chunki mustaqil tahsil olishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish talabalarning yetuk, barkamol, o'z yo'nalishi bo'yicha yetakchi mutaxassis bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimida o'z-o'zini o'qitish, nazorat qilish mustaqil ishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bilishga bo'lgan qiziqish – saralab olishga yo'naltirilgan bo'lib, shaxsning ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

O'quvchilar mustaqil ish bilan shug'ullanishlari uchun ularda mustaqillik, faollik va qiziquvchanlik xususiyatlari shakllangan bo'lishi kerak. Bu to'rt xususiyat o'zaro aloqadorlikda va mutanosiblikda mustaqil ishga undovchi xususiyatlar hisoblanadi. Mustaqillik-bunda o'quvchilarning muammoni hal qilishga, mavzuni o'rganish va amaliy vazifalarni bajarishlariga mustaqil holda ijodiy bajarishlariga intilishlari tushuniladi. Faollik-bunda o'quvchilarning jarayonlarga faol, ishtiyoq bilan kirishishlari tushuniladi. Qiziquvchanlik-bunda talabalarning bilim olishga, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga qiziqish, intilish bilan yondashishlari tushuniladi. Motivatsiya ya'ni insonning ichki undovchi kuchi hisoblanib, ichki yoki tashqi bo'lishi mumkin.



1- rasm. Mustaqil ishga undovchi xususiyatlar

Talabalarning mustaqil faoliyati quyidagi belgilarga ega:

- mustaqil fikr yuritish va unga intilish;
- har qanday shart–sharoitda yoki vaziyatlarda bajariladigan ish obyektini aniqlay olish;
- yangi vazifalarni hal etishda o‘z yondashuvini amalga oshira olish;
- egallanishi lozim bo‘lgan bilimlarni nafaqat tushunishni, o‘rganishni istash, balki ushbu bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishning tez, samarali usullarini izlab topish;
- bajarilgan ishlarni tahlil qilishda tanqidiy yondashuv;
- o‘z g‘oya va qarorlarining erkinligi Mazkur mustaqillik darajasi insonning rivojlanish sharoitlariga va zaruratga bog‘liq holda yuqori yoki past bo‘lishi mumkin.

Psixologlar o‘quvchi o‘z tashqi xatti-harakatlaridan ichki fikrlashiga o‘tishida mustaqillik qobiliyati tarkib topadi, deb biladilar. Aqliy mustaqillik shaxs mustaqilligining zaruriy tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘z navbatida faol hayotiy nuqtai-nazarni shakllantirish asosiy va zaruriy shartidir. O‘quv jarayoni – bu o‘ziga xos kirish va chiqishga, ma’lum ma’noda boshqaruvchilik xususiyatiga ega. Shu jihatdan olib qaraganda, o‘quvchining mustaqil ishini ham boshqarish imkoni mavjud.

Psixologiyaga oid darsliklarda ko'nikma asosan faoliyat usuli sifatida ta'riflanadi. Ko'nikmalar ba'zan egallangan bilimlar va hayotiy tajriba asosida tez, aniq va ongli ravishda bajariladigan amaliy harakatlarga tayyorgarlik ham deb ta'riflanadi. Insonning biror faoliyati turi bo'yicha egallagan mahorat va amaliy faoliyatni bajarishning eng oddiy darajasi ko'nikma deb ataladi.

O'quvchilar mustaqil ishlarini shakllantirish va rivojlantirishning turlicha jihatlari taniqli pedagog va psixologlarning ishlarida, ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Masalan: Babanskiy Y.K.(48), Bepalko V.P(49), Barishnikova Z.A.(50), Gaynutdinov R.Z.(55), Demidova S.I. (18), Davletshin M.G.(17), Magzumov P.T.(24) kabi psixolog olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida inson faoliyatining turli jihatlari tadqiq qilishgan.

Mustqillik erkin xatti-xarakat, fikr yuritish, tashabbuskor bo'lish va qat'iy qaror qabul qilish qobiliyatidir. O'rganish – o'quvchining yangi bilimlarini o'zlashtirish jarayonidir. O'rganish o'quv faoliyati darajasiga ko'tarilishi uchun o'quvchilar bilimlarini egallash davomida ularni boyitadigan, o'quv harakatlarining yangi usullarini o'zlashtirish, mustaqil ravishda o'quv topshiriqlarini belgilash, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z xususiy faoliyatini baholash mezonlarini bilishi lozim. Demak o'quvchining bilish (fikrlash) faoliyati reproduktiv va produktiv xarakterga ega. O'quv vazifasiga bog'liq holda o'quvchi har xil xarakterlarni bajaradi (yodlaydi, esga tushiradi, tahlil qiladi, umumlashtiradi, hal qiladi).

O'quv vazifalarini o'zlashtirish yo'li bilan masala va topshiriqlarni qay darajada qo'yilishiga qarab, o'qituvchi o'quvchilarni xilma-xil aqliy xarakterlarga undaydi, o'quvchilar mustaqil bilim olish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun uni qanday harakatlarga o'rgatish kerak? Buning uchun birinchi navbatda taqqoslash, tahlil, sintez, aniqlashtirish, umumlashtirish, xulosalash, tafakkur yuritish kabi operatsiyalarni bajara olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI



1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: 2003, TDPU,- 174 bet.
2. Avliyaqulov N.X., Musaev N.N. Pedagogik texnologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / a-Toshkent: Cho Mpon NMIU, 2012.208 b
3. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta’limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. Toshkent, TDPU. 1993
4. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O‘quvchilarning bilish faolligini oshirish yo‘llari. Uslubiy qo‘llanma. - Toshkent: TDPU, 2006. – 96 b.
5. Mahkamov S. O‘quv ustaxonalarida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar. - T.: O‘qituvchi, 1991. - 60 b.
6. Muranov B.I. Ishlabch chiqarish praktikasi sharoitida qishloq o‘quvchilarining unumli mehnatini tashkil etish. Samarqand. Sam SXI. 1989. - 77 b.